



## STATE INFORMATION POLICY IN UZBEKISTAN: HARMONY OF DEMOCRATIC GOVERNANCE AND NATIONAL INTERESTS

**Habibullo Ibodullaevich Rajabov**

*Doctor of Political Sciences*

*Tashkent State Transport University*

[rhabibulla@mail.ru](mailto:rhabibulla@mail.ru)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** information policy, democratic governance, national interests, information security, digitalization, transparency, civil society, mass media.

**Received:** 17.04.26

**Accepted:** 18.04.26

**Published:** 19.04.26

**Abstract:** The article analyzes the role and place of the state information policy of the Republic of Uzbekistan in the system of democratic governance amid globalization and digitalization. The effective organization of information policy is examined as a key factor in protecting national interests, establishing public dialogue, and ensuring information security. Based on a comparative analysis of theoretical perspectives from foreign researchers and domestic practice, practical recommendations for improving information policy are proposed.

## O‘ZBEKISTONDA DAVLATNING AXBOROT SIYOSATI: DEMOKRATIK BOSHQARUV VA MILLIY MANFAATLAR UYG‘UNLIGI

**Habibullo Ibodullaevich Rajabov**

*Siyosiy fanlar doktori*

*Toshkent davlat transport universiteti*

[rhabibulla@mail.ru](mailto:rhabibulla@mail.ru)

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** axborot siyosati, demokratik boshqaruv, milliy manfaatlar, axborot xavfsizligi, raqamlashtirish, shaffoflik, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari.

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv va raqamlashuv jarayonlari sharoitida O‘zbekiston Respublikasida davlat axborot siyosatining demokratik boshqaruvdagi o‘rni va roli tahlil qilingan. Axborot siyosatini samarali tashkil etish milliy manfaatlarni himoya qilishning, jamoatchilik bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning va axborot xavfsizligini

ta'minlashning asosiy omili sifatida ko'rib chiqilgan. Xorijiy tadqiqotchilarning nazariy qarashlari va milliy amaliyot qiyosiy tahlil qilingan holda, axborot siyosatini takomillashtirishga doir amaliy takliflar ilgari surilgan.

---

## ИНФОРМАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ГАРМОНИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ

*Хабибулло Ибодуллаевич Раджабов*

*Доктор политических наук*

*Ташкентский государственный транспортный университет*

*[rhabibulla@mail.ru](mailto:rhabibulla@mail.ru)*

*Тошкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** информационная политика, демократическое управление, национальные интересы, информационная безопасность, цифровизация, прозрачность, гражданское общество, средства массовой информации.

**Аннотация:** В статье анализируется роль и место государственной информационной политики Республики Узбекистан в системе демократического управления в условиях глобализации и цифровизации. Эффективная организация информационной политики рассматривается как ключевой фактор защиты национальных интересов, выстраивания диалога с общественностью и обеспечения информационной безопасности. На основе сравнительного анализа теоретических взглядов зарубежных исследователей и отечественной практики выдвинуты практические предложения по совершенствованию информационной политики.

**Kirish.** Zamonaviy davlat boshqaruvida axborot alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni belgilovchi omilga aylanib bormoqda. Insoniyat o'z tarixida o'zi kashf etgan boshqaruv usullari orasidan demokratiyani eng samarali tizim sifatida e'tirof etdi. Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Uinston Cherrchill bu haqda shunday degan edi: "Demokratiya insoniyatning erkinlik bilan bog'liq talab va istaklarini o'zida to'la jamlagan bo'lmasada, insoniyat undan yaxshiroq boshqaruv usulini o'ylab topganicha yo'q"[1].

Demokratik boshqaruv tizimida davlat uch hokimiyatning mustaqil va tizimli faoliyatiga asoslanadi. Rasman tan olinmasa-da, ommaviy axborot vositalari (OAV) davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim ko'priki to'rtinchi hokimiyat sifatida ish yuritadi. Mana shu reallikdan kelib chiqib, davlat axborot siyosatini ilmiy asosda shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot siyosatining nazariy asoslari, amaliy ko'rinishlari va rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan davlat siyosati jamiyatning muhim masalalarini hal qilishga yo'naltirilgan tizimli faoliyat sifatida talqin etiladi. Rossiyalik siyosatshunos Yu. Nisnevich davlat boshqaruvini "ijtimoiy rivojlanishni maqsadli boshqarish, huquqiy normalarga asoslanib amalga oshiriladigan faoliyat" deb ta'riflaydi[2]. Uning fikricha: "Axborot jamiyatning har bir a'zosi shaxsini rivojlantirish, jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, fuqarolik jamiyati va uning institutsional tuzilmalarini shakllantirishning asosidir. Turli shakllarda axborot almashinuvi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy sohalarini rivojlantirish yoki uni yagona bir butunga birlashtirish mumkin bo'lmagan jarayondir"[2].

Zamonaviy jamiyatda fuqarolarning erkin faoliyat yuritishi, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirishi ko'p jihatdan demokratik, umume'tirof etilgan me'yorlar va liberal qarashlarga bog'liqdir. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro tenglik tamoyillariga mos ravishda olib borilishi milliy taraqqiyot, barqaror rivojlanish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv kabi ijobiy natijalarni kafolatlaydi[3].

AQShlik professor Sandra Braman axborot siyosatini davlat va jamiyat mutanosibligini ta'minlashning asosiy omili sifatida ko'radi. Uning ta'kidlashicha: "Axborot siyosatining samarali olib borilishi natijasida davlat fuqarolar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Vakillik demokratiyasi modeli hukumatdagi jarayonlar va faoliyat to'g'risida individual bilimlarni va hech bo'lmaganda vakillik orqali ma'lumot tarqatish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat"[4].

Braman shuningdek, hukumat va fuqarolar o'rtasida to'liq shaffof ma'lumot almashinuvini amalga oshirish mumkin emasligini tan oladi chunki barcha ma'lumotlarning oshkor qilinishi xavfsizlik, mudofaa va tashqi siyosat manfaatlariga zid kelishi mumkin. Bu holat axborot siyosatini nozik muvozanat san'atiga aylantiradi: shaffoflik va xavfsizlik talablarini uyg'unlashtirish[4].

AQShlik professor Kennet Rodjerson davlat va jamiyat boshqaruvida axborot siyosatining zaruratini uch asosiy jihat orqali izohlaydi:

1. Axborot oqimiga tashqi vositalar bilan to‘sqinlik qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, axborotning erkin harakati natijadorlikni ta‘minlaydi;
2. Axborotni boshqarishga urinishlar siyosatning va global o‘zaro ta‘sirlarning defakto qismidir axborotni boshqarish boshqaruvchiga “kuch” bag‘ishlaydi;
3. Axborotga yo‘naltirilgan tovarlar va xizmatlar muammolarni hal etishda an‘anaviy OAVga nisbatan samarali yechimlarni taklif etmoqda [5].

O‘zbekistonlik olim, siyosiy fanlar doktori Sh. Muradova esa boshqaruvda axborotning o‘rni oshib borishini shunday ifodalaydi: “Ba‘zi mamlakatlarning boshqalari ustidan harbiy g‘alabalari vaqtinchalik bo‘lib chiqdi. Har qanday davlatning jismoniy qudrati vaqtinchalik bo‘lishi anglab yetildi. Lekin, davlat siyosiy institut va ijtimoiy tuzilish shakli sifatida ommaviy axborotni to‘liq to‘siq qo‘ya olmaydi”[6].

Postindustrial rivojlanish bosqichida xalqaro munosabatlarda mamlakatning nufuzini oshirish, jahon hamjamiyatining teng huquqli sub‘ekti bo‘lish davlatning axborot sohasidagi rejalari va imkoniyatlariga to‘la ma‘noda bog‘lanib bormoqda. Bugun jamiyat hayotida axborot sohasi davlat siyosatini olib borishda yordamchi tizim mavqeidan yetakchilik maqomiga o‘tmoqda[7].

**Muhokama va natijalar.** Axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan. Bu borada aniq, tizimli va uzluksizlikni o‘zida jamlagan strategik dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Milliy axborot muhitini tashqi ta‘sirlardan muhofaza qilish, tashqi agressiyaga qarshi tura oluvchi milliy kontentni mustahkamlash zaruriyati tobora dolzarblashmoqda.

Axborot siyosatining eng muhim masalalaridan biri global axborot makonida milliy manfaatlarni himoya qilishdir. Global axborot makonida texnik va mafkuraviy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan davlatlarning o‘z g‘oyaviy ta‘sirini namoyon qilishi qiyinchilik tug‘dirmaydi. Raqamlarga murojaat qilinsa, AQSh tomonidan yaratilgan “com” domenida 150 millionga yaqin sayt ro‘yxatdan o‘tgan. Germaniyaning “de” domeni esa 100 milliondan ortiq saytni qamrab oladi[8].

Axborot iste‘molchilarining asosiy qismi internet tarmog‘idan foydalanuvchilar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu reallik O‘zbekiston uchun ham yuqori samarali milliy raqamli infratuzilmani yaratishni, milliy kontentni rivojlantirishni va raqamli madaniyatni shakllantirishni taqozo etadi.

Rossiyalik tadqiqotchi Yudin zamonaviy jamiyatda rivojlanishning asosiy sharti sifatida axborot madaniyatini ko‘rsatadi: “Axborot oqimining erkin yo‘nalishi uchun zamonaviy inson umumiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. Axborot madaniyati insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mahsuli hisoblanadi.

Axborot madaniyati darajasi zamonaviy jamiyatning o'z evolyusiyasining axborot davriga o'tishga tayyorligini ob'ektiv ravishda aks ettirishga qodir. Aks holda, texnologiyaning jadal rivojlanishi va oliy hokimiyat tomonidan e'lon qilingan zamonaviy jamiyatning texnologik modernizatsiyasi samarasiz va oxir-oqibat foydasiz bo'lib tuyuladi"[9].

Yudinning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyatda shaxs axborot madaniyatining majburiy elementlari quyidagilardir:

- zamonaviy texnik qurilmalardan foydalanish bo'yicha aniq ko'nikmalar;
- axborot texnologiyalaridan kundalik faoliyatda foydalanish qobiliyati;
- zarur ma'lumotlarni turli manbalardan olish, qayta ishlash va samarali foydalanish malakalari[9].

O'zbekistonda axborot siyosati sohasida amaldagi qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, u axborotga erkin kirish, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi va fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini himoya qilishni nazarda tutadi. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, amaliy-tashkiliy va texnologik yordam mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[10].

Axborot siyosatining zamonaviy muammolarga yechimi raqamlashtirish jarayonlarini faollashtirishdadir. Axborot olish va tarqatishning raqamlashuvi, jamiyatning barcha sohalarida raqamlashtirish islohotlarini jadal olib borish:

- bir tomondan, axborotni muhofaza qilishni ta'minlaydi;
- ikkinchi tomondan, jamiyatni axborot bilan to'liq ta'minlash imkonini yaratadi;
- tashqi munosabatlarda texnik va mafkuraviy tahdidlarning oldini oladi;
- eng asosiysi, fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ortadi[11].

Elektron ovoz berish tizimini joriy etish buning yaqqol misoli bo'la oladi. AQSh, Shveysariya, Fransiya, Estoniya kabi mamlakatlar elektron ovoz berishni saylov jarayonlariga tatbiq etish orqali erishilgan ijobiy natijalar ixtilofli vaziyatlarni oldini olish, shaffoflikni ta'minlash bobida O'zbekiston uchun ham namuna bo'la oladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari va xorijiy tajriba tahliliga asoslanib, O'zbekistonda samarali axborot siyosatini olib borishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari taklif etiladi:

Birinchidan, axborot olish va tarqatishning qonunchilikda belgilangan asoslariga ko'ra axborot sub'ektlarining jamiyatni axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga doir hatti-harakatlarini rag'batlantirish;

Ikkinchidan, axborot xavfsizligini milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlash va undan so'ng jamiyatda axborot xavfsizligiga qaratilgan aniq, uzluksiz strategik dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

Uchinchidan, milliy axborot muhitini tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish, tashqi agressiyaga qarshi tura oluvchi milliy kontentning imkoniyatlarini mustahkamlash;

To'rtinchidan, jamiyat a'zolarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy oni va madaniyatini mustahkamlash maqsadida ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomini oshirish;

Beshinchidan, axborot tahdidlariga qarshi kurashishning jahon tajribasi va milliy amaliyotni uyg'unlashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

Oltinchidan, jamiyatning axloqiy va mafkuraviy dunyoqarashini milliy xususiyatlarga mos ravishda rivojlantirish, fuqarolarni ichki va tashqi g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan muhofaza qilishning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash;

Bu yo'nalishlar nafaqat axborot xavfsizligini ta'minlashga, balki ochiqlik va shaffoflikni kengaytirishga ham xizmat qiladi. Zero, davlat organlarining faoliyatida jamiyat hayoti va faoliyatiga daxldor barcha masalalarni jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi, axborot tarqatuvchi sub'ektlarga — davlat va nodavlat OAVga ma'lumot olish, uni qayta ishlash va tarqatishda teng imkoniyatlarning yaratilishi boshqaruvning samarali namunasidir.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, axborot siyosatini davlat boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida mustahkamlash jamiyatda ijobiy tendensiyalar shakllanishini ta'minlaydi. Bunda asosiy e'tibor davlat organlari tomonidan jamiyat a'zolariga tarqatilayotgan tashqi va ichki axborot muhitini o'rganish, tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarishga qaratilishi lozim.

Globalashgan axborot makonida axborotni cheklash, turli vositalar faoliyatini to'xtatish kabi tazyiq usullari kutilgan natijani bermaydi, bugun axborot tarqatish va olishning ko'plab yo'llari mavjud. Asosiy maqsad ochiqlik, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan, milliy manfaatlarni ishonchli himoya qiladigan va fuqarolik jamiyati bilan to'liq dialogni ta'minlaydigan boshqaruv tizimini barpo etishdir.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, axborot siyosatini zamonaviy texnologiyalar orqali ta'minlash barqaror taraqqiyotning garovi va demokratik O'zbekiston qurilishining muhim sharti bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Б.И.Вайнберг., С.Б.Болелов. Нурумский оазис на западе Хорезма // Культурные ценности 1997-1998 СПб. 1999. С-50-51.
2. С.Б.Болелов. Некоторые итоги археологических работ на Хумбуз-тепе // ОНУ.№9-10. Ташкент: 1999. С-87-91.
3. Толстов.С.П. Древний Хорезм. Издание МГУ., Москва, 1948. С-68-71

4. Ғ.Ходжаниязов. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 41-52 б.
5. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 83-84 б.
6. Толстов С.П. Работы Хорезмской экспедиции АН Уз по раскопкам памятника IV-III вв до н.э. Койкрылган кала (март-май 1952г.) ВДИ. 1953.№1. С-160-161.
7. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 83-84 б.
8. С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент: 1964. 371-372 б.
9. Абдримов К., Аvezмуротов О. Қадимги Хоразм археологик ёдгорликларининг баъзи бир хусусиятлари: // Илм сарчашмалари // 2004. №1, 55-57 б.
10. Ходжаниязов Ғ. “Қырккыз-кала городище раннее античного Хорезма”, Археология Приаралья.вып. IV. С 82-91.
11. Исмоилов С. Қадимги Хоразм қалъалари. Тошкент: 2007. 39-40 б.
12. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 81-82 б.